



TRANSFORMING THE BANKING SYSTEM OF OUR COUNTRY WAYS TO IMPROVE THE MECHANISM

Sa'dullaeva Moxinur Aziz qizi

Assistant of Tashkent State University of Economics

Abstract: It is known that in recent years consistent reforms have been carried out in the banking and financial system in our country, a number of measures have been implemented, and as a result, the necessary legal conditions have been created to provide advanced banking services and strengthen the competitive environment in this system.

Keywords: management in banks, financial intermediation in the economy, digital technologies.

MAMLAQATIMIZ BANK TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Sa'dullaeva Moxinur Aziz qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

Abstract: Ma'lumki, oxirgi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimida izchil islohotlar olib borilmoqda, qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank xizmatlarini ko'rsatish hamda ushbu tizimda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Kalit so'zlar: banklarda menejment , iqtisodiyotda moliyaviy vositachilik, raqamli texnologiyalar.

Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi hamda "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi yangilangan qonunlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank tizimida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank tizimiga iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat

INTERNATIONAL SCIENTIFIC E-CONFERENCE
" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" – Ankara, Turkey



ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar soha rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 mayda qabul qilingan "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni¹ ushbu masalarni yechishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Bank tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish, bank xizmatlari bozorining kengayishiga olib keladi. Banklarning transformatsiyalashuvi sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatishning yangi turlarini joriy qilinishini taqozo etadi va hudud bilmas darajada bank xizmatlari ko'rsatiladi. Shu bilan birga tijorat banklarining raqobatchilik muhiti yanada kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev zamonaviy bank tizimi haqida tuxtalib o'tar ekanlar, "Afsuski, bank tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda"² deb, bejiz ta'kidlab o'tmagan edilar. Mamlakatimiz moliya-kredit tizimida amalga oshirish lozim bo'lgan muhim masala sifatida raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni e'tirof etishimiz lozim.

Banklar transformatsiyalashuvi sharoitida mijozlarning talablari ortib borishi muqarrar va bu borada ilg'or innovatsion bank xizmatlarini sifatli ko'rsatilmasligi natijasida bank mijozlarining o'z bankiga bo'lgan ishonchining yuqotilishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bank mijozlari banklarini almashtirishga yoki boshqa bank xizmatlaridan foydalanishga xarakat qiladi. Shuning uchun banklar mijozlarining talablariga binoan faoliyatini transformatsiya qilishi, ya'ni bank mahsulotlari va xizmatlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank xizmatlarni yaratishni taqozo etadi. Davlat banklarini transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri ham aynan IT sohasini rivojlantirish masalasidir. Davlat banklarini transformatsiya qilish bilan bir qatorda xususiy banklarni ham transformatsiya qilish lozim. Bank tizimida innovatsiyalarni qo'llash hisobiga texnologik jarayonlar qisqaradi va qaror qabul qilish maqbullahashadi. Bu esa yangi mahsulotlar va yangi bozorlarga kirish uchun imkoniyat yaratadi. Xususiy banklar davlat banklariga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdag'i "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5953-soni Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz>.



nisbatan kichik bo'lganligi sababli innovatsion jarayonlarni tezroq moslashtira oladi. Shu sababli xususiy banklar bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun davlat banklaridan ilgariroq harakat qilsa ko'zlagan maqsadlariga erishishlari mumkin bo'ladi.

Tijorat banklarini xalqaro moliya institutlari ko'magida transformatsiya qilishdan kutilayotgan asosiy natijalardan biri bank ishida yetarli darajada tajriba, bilim va obro'ga ega bo'lgan strategik investorlarni jalb qilgan holda qator tijorat banklarida davlat ulushini kamaytirish, faoliyatga xalqaro tajribani olib kirishdir. Qolaversa, kredit tashkilotlarini ularga xos bo'limgan funksiyalarni bajarishdan, shuningdek, ortiqcha yuklamalardan ozod qilish orgali ma'muriy yukni izchillik bilan bartaraf etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmati turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zlanmoqda

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish natijasida moliyaviy xizmatlarning ommabopligi oshadi, moliya bozorida teng raqobat sharoitlari shakllanadi, kreditlash faqat bozor shartlariga bo'ysunadi. Xizmat ko'rsatish modernizatsiyalashib, banklarning samarali infratuzilmalari yaratiladi, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'i rivojlanadi, faoliyat avtomatlashtiriladi, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlar keng joriy qilinib, bank tizimining moliyaviy barqarorlik darjasini ko'tariladi.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklarining transformatsiyalashuvi, bank mahsulotlari va xizmatlarining kengayishi, banklarning raqobatbardoshlik darjasini oshirilishiga olib keladi.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i PF-5992-sон Farmoni.
2. Berezina M.P. Beznalichnye raschyoty v ekonomiki Rossii. Analiz praktiki. – M.: AO «Konsaltbankir», 1997. –s.5. [1],[2]
3. Rayzberg B.A., Lozovskiy L.Sh., Starodubseva Ye.B. Sovremennyyu ekonomicheskiy slovar. – M.: Infra-M, 2000. – s. 288.